



AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARI XIZMATLARINING TANNARXIDA IJTIMOIIY SOLIQNI TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI.

G'anibayev I.Sh.

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada avtomobil transporti korxonalari, yo'lovchi va yuklarni tashish xizmati, xarajatlar, avtomobil transport korxonasi xarajatlari, tannarx, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi, xarajat moddalari, xarajat elementlari, ijtimoiy soliq, ijtimoiy soliq stavkasi, soliqqa solish ob'ekti, soliq bazasi, xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilish, boshqaruv hisobi, xarajatlar hisobi, ijtimoiy soliq stavkasining kamayishini mahsulot tannarxiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avtomobil transporti, xarajatlar, tannarx, kalkulyatsiya, xarajat moddalari, xarajat elementlari, ijtimoiy soliq, ijtimoiy soliq stavkasi, xarajatlar hisobi.

Аннотация: В статье представлены сведения о предприятиях автомобильного транспорта, услугах по перевозке пассажиров и грузов, расходах, затратах автотранспортного предприятия, себестоимости, себестоимости оказанных услуг, статьях затрат, расходных элементах, социальном налоге, ставке социального налога, объекте налогообложения, налоговой базе, калькуляция стоимости услуг, управленческом учете, учете затрат, освещается влияние снижения ставки социального налога на себестоимость продукции.

Ключевые слова: автомобильный транспорт, расходы, себестоимость, калькуляция, статьи расходов, элементы затрат, социальный налог, ставка социального налога, учет затрат.

Annotation: the article covers the costs of the service of transport enterprises, passenger and cargo transportation, expenses, expenses of the automobile transport enterprise, cost, cost of services rendered, cost items, cost elements, Social tax, Social tax rate, object of taxation, tax base, calculation of the cost of services, management accounting, cost accounting, influence of the reduction of the social tax rate on.

Keywords: automobile transport, costs, cost, calculation, cost items, cost elements, Social tax, Social tax rate, cost accounting.

1.Kirish

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish sohasini o'ziga xosligi shundan iboratki, u aholiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga yangi, qulay imkoniyatlar yaratadi, qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etiladi va iqtisodiyotni rivojlantirishga, aholini daromadini ko'paytirishga olib keladi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakat taraqqiyoti xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi aholiga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va ularning daromadlarini oshirish hamda aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur sohani rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy etishiga, milliy daromadni o'sishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida transport xizmatini ko'rsatish tarmog'i asosiy va eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki avtomobil transporti orqali yo'lovchi va yuklar o'z manzillariga yetkaziladi. U mahsulot ishlab chiqarish uzluksizligini va aylanishini ta'minlaydi, aholini transport xizmatiga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 35 247,4 mlrd. so'mga teng bo'lib shundan, transport xizmatlarining 54,1 foizi avtomobil transporti, 12,9 foizi havo transporti, 12,0 foizi temir yo'l transporti, 11,1 foizi quvur transporti va 9,9 foizi yordamchi transport xizmati hissasiga to'g'ri keladi. Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti xizmatlari ulushida yo'lovchi avtotransport xizmatlarining ulushi 58,4 % ga, yuk tashish avtotransport xizmatlarining ulushi 41,6 % darajasida qayd etildi.

2022 yilning yanvar-iyun oylari davomida tashilgan yuklarning 89,8 foizi, tashilgan yo'lovchilarni 97,6 foizi avtomobil transporti hissasiga to'g'ri keladi ¹.

Mamlakatimiz geografik joylashuv jihatidan markaziy osiyoda joylashganligi, dengiz va okeanlarga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmaganligi sababli yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari asosan avtomobil transport korxonalarini tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida, mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish ko'lamini kengayishi, aholini o'sishi avtomobil transporti xizmatlariga bo'lgan talabni o'sishiga olib keladi. Bu o'z navbatida avtomobil transporti xizmatlari sifatini oshirish, mazkur soha korxonalarini yangi, zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash va ularga texnik xizmatlar ko'rsatish saviyasini oshirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil transporti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq avtomobil transporti — tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochmani avtomobilda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui tushuniladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va bu jarayon hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Avtomobil transporti korxonalarini rivojlantirishda, ko'rsatilayogan xizmatlar tannarxini kamaytirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hisob ishlarini to'g'ri tashkil etish, foydalanuvchilar va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli ma'lumotlarni yetkazib berish, daromad va xarajatlarni o'z vaqtida to'g'ri tan olish muhim ahamiyatga ega.

2.Adabiyotlar tahlili.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ko'rsatilan xizmatlar tannarxini to'g'ri aniqlash, hisobini to'g'ri tashkil qilish o'z navbatida tannarxni shakllantiruvchi xarajatlarni tahlil qilish, xarajatlardan unumli foydalanish, samarasiz xarajatlarni oldini olish va korxona foydasini oshirish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi.

¹ <https://stat.uz/ma'lumotlaridan-olindi>.

Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi, jumladan, avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi, tannarxni tashkil qiluvchi xarajatlarni tasniflash, hisobga olish, boshqarish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish borasida ko'plab olimlar, jumladan, K. Urazovning (2020) fikriga ko'ra "Tannarx-bu mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishga ketgan barcha xarajatlarning pulda ifodalangan majmuasi"dir. Ya'ni, avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxi va uni shakllanishi bo'yicha F.Abduvaxidovning (2019) ilmiy adabiyotlaridagi manbaalariga ko'ra "Mahsulot (ish va xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish bilan bogliq bolgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi" deb ta'kidlab o'tgan.

M.Kalonovni (2021) fikricha "Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ular bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydi, ya'ni hisobot davri davomida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga qilingan barcha sarf-xarajatlar shu hisobot davrida ushbu ish (xizmat)lar tannarxi sifatida tan olinadi va hisobdan chiqariladi".

K.Urazovning (2011) ilmiy adabiyotlarida "Avtotransport korxonalarida avtomobil transporti vositalari yordamida yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida tan olinadi. Ushbu xarajatlar bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning tannarxini tashkil etadi" deb fikr bildirgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagicha guruhlanadi: a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar; b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari; v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Avtomobil transporti korxonalarida iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan tannarx to'g'risida N.Tarxanovanning (2015) quyidagicha fikr bildiradi "Transport xizmatlarining tannarxi avtomobil transportida tashish xizmatlari uchun foydalaniladigan barcha turdagi resurslardan (avtomobil transportida amalga oshiriladigan boshqa ishlar va xizmatlar) foydalanish samaradorligini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichdir. Bundan tashqari tannarx tarkibi va tuzilishi transport tariflarini belgilash uchun uchun asos bo'lib hisoblanadi".

A.Konstantinovnani (2019) fikricha "Transportda tashish xizmatlari tannarxini shakllantirish buxgalteriya talablari asosida, shuningdek iqtisodiy yondashuv asosida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiy yondashuv bilan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar bilan bir qatorda bilvosita (yashirin) xarajatlar ham hisobga olinadi.

Mahsulot tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilish orqali mahsulot tannarxini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki unda xarajatlarni boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish kerakli ma'lumotlar o'z aksini topadi. Z.Qurbonovni (2019) ta'kidlashicha "Xarajatlar hisobi tizimi korxonalarda mahsulotning qaysi turini ishlab chiqarish, qancha miqdorda ishlab chiqarish kerakligi to'g'risida qarorlar qabul qilishga ko'maklashadi. Xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar uchun xarajatlarning hisob tizimi xizmat ko'rsatishda muhim bo'ladigan xarajatlar turini aniqlashda yordam beradi.

I.Txarkaxovanning (2018) fikricha xarajatlarni hisobga olish avtotransport sohasidagi buxgalteriya tizimining murakkab sohalaridan biridir, chunki uni hisobga olishda transport

faoliyatini boshqarish, texnologiyasi va tashkil etishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Avtomobil transporti korxonalarida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar iqtisodiyoning boshqa tarmoqlari qatori xarajat moddalari bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi: moddiy xarajatlar; mehnat haqi xarajatlari; ijtimoiy soliq summasi; amortizatsiya xarajatlari; va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

N.V.Sherbakovaning (2013) fikricha buxgalteriya hisobi sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida amalda sarflangan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni aniqlash, avtomobil transportida tashish, transport bilan bog'liq ishlarni (xizmatlarni) amalga oshirishda tashkilotning ushbu resurslarga bo'lgan ehtiyojini aniqlashda xarajatlarni quyidagi elementlar bo'yicha guruhlashni ta'minlashi kerak: material xarajatlar; mehnatga haq to'lash xarajatlari; ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar; amortizatsiya; va boshqa xarajatlar [9, 28 bet].

Avtomobil transporti korxonalarida boshqa tarmoq korxonalari qatori ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini hosil qiluvchi harajat moddasining biri ijtimoiy soliq hisoblanadi.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir (Soliq kodeksi, 2019).

Avtomobil transporti korxonalarida hisoblangan ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq hisoblanadi va korxona xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Mazkur korxonalarda transport xizmati ko'rsatish bilan bevosita bog'liq xodimlarga hisoblangan ish haqiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy soliq ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga, korxonani boshqaruv xodimlari ish haqiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy soliq boshqaruv xarajatlari kiritiladi. Mavkur mavzuda ijtimoiy soliqni ko'rsatilgan xizmatlar tannarxida tutgan o'rni va uning ahamiyatini yoritishga xarakat qildik.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi, tannarx tarkibiga kiruvchi xarajatlar, ularning tasniflanishi va buxgalteriya hisobida hisobga olishga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarni, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, xarajatlarni xarajat moddalari bo'yicha tasniflanishini, jumladan, ijtimoiy soliq summasini tannarxa ta'sirini tahlil qilish, aniqlashtirish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash, muqobilini tanlash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Avtomobil transporti korxonalarida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar buxgalteriya hisobida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda joriy tartibda guruhlanadi. Ko'rsatilgan xizmatlar birligining tannarxini aniqlash jarayoni buxgalteriya hisobida kalkulyatsiya qilish deyiladi. Mazkur korxonalarda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni guruhlashda ularning xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlash muhim hisoblanadi.

Avtomobil transporti korxonalari xarajatlari hisobini tashkil etish murakkab jarayon hisoblanib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanib boshqaruv hisobini buxgalteriya hisobidan ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini tizimlashtirish, xarajatlarni xarajat elementlari va moddalari hamda turli belgilari bo'yicha bo'yicha guruhlariga ajratish, xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari me'zonlari asosida tan olish, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini aniqlash, xarajatlardan samarali foydalanish darajasini tahlil qilish, samarasiz xarajatlarni kamaytirish va ularni amalga oshirmaslik choralarini ko'rish muhim ahamiyatga egadir.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarning turlari va hisobi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi hamda mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

- a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Yuqorida qayd qilingan Nizomga muvofiq Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra elementlari va kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha 1-jadvalda keltirilgan tartibda guruhlashimiz mumkin.

1-jadval.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra elementlari va kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha guruhlanishi²

Kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha	Xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq xarajatlar
	- haydovchilar va konduktorlarga hisoblangan ish haqi
	- haydovchilar va konduktorlarning ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq;
	-avtomobil yoqilg'isi
	- moylash va boshqa materiallar
	-ehtiyot qismlar
	-avtomobil akkumulyatorlari
	- avtomobil shinalarini ta'mirlash va ekirish xarajatlari
	- harakatdagi transport vositalarining amortizatsiyasi
	- xizmat ko'rsatish bilan bog'liq nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
	- xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa bevosita xarajatlar
	- yordamch bo'limlar tomonidan avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari
	- umumishlab chiqarish xarajatlari
Xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra elementlari bo'yicha	-moddiy xarajatlar
	-ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari
	-asosiy vositlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
	-boshqa xarajatlar

Avtomobil transporti korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar tannarxida va boshqaruv xarajatlari tarkibida hisoblangan ish haqiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy soliq summasi ham sezilarli summani tashkil qiladi. Ijtimoiy soliq ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilishda xarajat moddasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XIV bo'limida ijtimoiy soliqni hisoblash va to'lash tartibi belgilab qo'yilgan. Soliq kodeksiga muvofiq ijtimoiy soliqni to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, O'zbekiston Respublikasida

² Sohaga oid manbalarni o'rganish asosida muallif ishlanmasi

faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari hisoblanadi. Ijtimoiy soliqni soliq solish obyekti bo'lib ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari, soliqqa tortiladigan bazasi soliqni hisoblab chiqarish uchun Soliq kodeksining 371-“Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar” moddasiga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

Korxonalarda mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi xarajatlar korxonaning qaysi xarajatlar guruhiga kiritilsa (ishlab chiqarish, boshqaruv, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish va boshqalar), ijtimoiy soliq summasi ham mazkur xarajat tarkibiga kiritiladi. Avtomobil transporti korxonalarining boshqaruv xarajatlarida va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxida ijtimoiy soliq summasi ham o'z aksini topadi.

Mamlakatimizda keyingi davlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish, jumladan, avtomobil transportida yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlari ko'rsatishni yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida bir qator me'yoriy xujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-104-sonli qaroriga asosan 2022 yil 1 apreldan 2025 yil 1 yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini (amaldagi 12 foiz o'rniga) 1 foiz etib belgilandi.

Ijtimoiy soliq stavkasini 12 foizdan 1 foizga kamaytirilishi, avtomobil transporti korxonalarining umumiy xarajatlari summasini, shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kamayishiga olib keldi. Natijada ijtimoiy soliqni to'lashdan tejalgan mablag'larni korxonaning moddiy texnika bazasini kengaytirish, yangi va zamonaviy transport vositalari, mazkur yo'nalishga zarur bo'lgan uskunarlar sotib olish imkoniyati yaratildi.

Ijtimoiy soliq summasini 2022 yilning yanvar oyida va soliq stavkasi kamaytirilgan aprel oyidagi o'zgarishini Farg'ona shahrida aholiga yo'lovchilarni tashish xizmatlarini ko'rsatuvchi mas'uliyati cheklangan jamiyat misolida tahlil qilinganda 2022 yilni yanvar oyiga nisbatan 2022 yilning aprel oyida 34593,2 ming so'mga korxona xarajatlari kamayganligini va shuncha miqdordagi mablag' korxona ixtiyorida qolganligini aniqlashimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

Ijtimoiy soliq stavkasini kamayishi hisobiga ijtimoiy soliq summasini o'zgarishi to'g'risida ma'lumot³

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022 yil yanvar oyi	2022 yil aprel oyi	Farqi (+;-)
I	Yo'nalishdagi avtobuslar soni	dona	40	40	-
II	Xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar				
1	Xaydovchilar ish haqi	ming,so'm	281616,0	280301,7	-1314,3
2	Ijtimoiy soliq	ming,so'm	33793,9	2803,2	-30990,7
III	Boshqaruv bilan bog'liq xarajatlar				
3	Hisoblangan ish haqi	ming,so'm	32750,0	32750,0	0
4	Ijtimoiy soliq	ming,so'm	3930,0	327,5	-3602,5
	Jami ijtimoiy soliq	ming,so'm	37723,9	3130,7	-34593,2

³ Muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki har oyda o'rtacha 34000,0 ming so'mdan ijtimoiy soliqni kam hisoblanishi evaziga yil oxiriga qadar 306 000,0 (34000,0 x 9) ming so'm mablag' korxona ixtiyorida qolishiga erishiladi. Albatta bu summa xususiy yo'lovchi tashish xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar uchun yaxshigina moliyaviy resurs hisoblanadi.

Avtomobil transporti korxonalarida ish haqi ko'rinishidagi xarajatlar asosiy xarajat turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur xarajatning o'zgarishi ham ijtimoiy soliq summasini o'zgarishiga olib keladi. Lekin, avtomobil transporti xaydovchilari ish haqlarini asossiz ravishda kamaytirish imkoni yo'q, shu sababli ijtimoiy soliq stavkasini kamaytirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish nazarda tutilgan.

Mazkur korxona misolida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxida ijtimoiy soliq summasini 2022 yilning yanvar va aprel oylaridagi salmog'i tahlil qilinganda 2022 yilni yanvar oyida ijtimoiy soliq summasi jami xarajatlarga nisbatan 5,9 foizni, 2022 yil aprel oyida 0,5 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi tarkibida ijtimoiy soliq summasining salmog'i to'g'risida ma'lumot⁴

№	Xarajat moddasi	2022 yil yanvar oyi		2022 yil aprel oyi		Farqi	
		Summasi (ming so'm)	Salmog'i, %	Summasi (ming so'm)	Salmog'i, %	Summa (ming so'm)	Sal- mog'i, %
1	Xaydovchilarning ish haqi	281616,0	49,5	280301,7	52,4	-1314,3	2,9
2	Ijtimoiy soliq summasi	33793,9	5,9	2803,2	0,5	-30990,7	-5,4
3	Yoqilg'i	172560	30,3	169230	31,6	-3330,0	1,3
4	Maylash materiallari	5179,7	0,9	5165,9	1,0	-13,8	0,1
5	Ehtiyot qismlar va shinalar eskirishi	31727,2	5,6	32821,2	6,1	1094,0	0,5
6	Transport vositalar amortizatsiyasi	22506,8	4,0	22506,8	4,2	0,0	0,2
7	Texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari	6531,1	1,1	7325,4	1,4	794,3	0,3
8	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	15425,2	2,7	14976,0	2,8	-449,2	0,1
	Jami	569339,9	100,0	535130,2	100,0	-34209,7	0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aprel oyida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini tashkil etuvchi xarajat summasini kamayishi asosan ijtimoiy soliq summasini kamayishi hisobiga bo'lgan, mazkur kamayish ijtimoiy soliq stavkasini 12 foizdan 1 foizga kamaytirilishi hisobiga yuzaga kelgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki avtomobil transporti korxonalarini xarajatlarini turli tumanligi, ularni hisobini to'g'ri tashkil etilish, xarajatlarni nazorat qilish, samarasiz xarajatlarni oldini olish muhim ahamiyadga ega.

⁴ Muallif ishlanmasi

Hozirgi kunda avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni tashish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlarni rag'batlantirish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan e'tibor bundan buyon ham uzlukiz ravishda davom ettiriladi, uning natijasida xizmat ko'rsatish qamrovi kengayishiga hamda aholi va yuklarni tashish sifatini yanada oshirilishiga erishiladi.

5.Xulosa

Avtomobil transporti korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyatida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Korxonaning yakuniy moliyaviy natijasi ko'p jihatlar ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini o'zgarishiga bog'liq.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi qancha past bo'lsa, korxonaning xizmat ko'rsatishdan oladigan foyda summasi shuncha yuqori bo'ladi.

Avtomobil transporti korxonalarida ijtimoiy soliq stavkasini kamaytirilishi korxonalarning kuchli raqobat sharoitida rivojlanishiga va quyidagi muammolarni hal etilishiga imkoniyat yaratadi, jumladan:

Birinchidan, avtomobil transporti korxonalari xarajatlarini kamaytirilishiga va foyda summasini ko'payishiga olib keladi.

Ikkinchidan, avtomobil transporti korxonalarida ijtimoiy soliq summasini kamayishi hisobiga soliqni to'lashdan tejalgan mablag', ya'ni moliyaviy resurs yuzaga keladi, bu o'z navbatida korxonalarni moddiy texnika bazasini yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan avtomobil transportida xizmat ko'rsatuvchi xaydovchilarni ish haqlarini kamaytirib ko'rsatish holatlarini oldi olinadi. Chunki ish haqi miqdorini oshirilishi natijasida hisoblangan ijtimoiy soliq summasi sezilarli darajada katta bo'lmaydi.

To'rtinchidan, avtomobil transporti korxonalarida tejalgan mablag' hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish va bo'sh aholini ish bilan ta'minlash imkoniyati vujudga keladi.

Adabiyotlar:

Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. (2019) Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 403 b.

Kalonov M.B., Maxkamboyev A.T., Temirov F.T. (2021) Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma. - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 180 b.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019 yil. O'RQ-599-сон.

Qurbonov Z.N., Misirov K.M. (2019) Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-moliya", 752 b.

Urazov K.B., Po'latov M.E. (2020) Buxgalteriya hisobi. Darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent. 558 b.

Urazov K.V., Vaxidov S.V. (2011) Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik, Toshkent Davlat Iqtisodiyot un-ti, Samarqand iqtisodiyot va seryis in-ti. -T.: Adib, 496 b.

Константиновна А.А. (2019) Развитие научно-методических подходов к формированию стоимости городских пассажирских перевозок. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.

Тарханова Н.В. (2015) Анализ себестоимости транспортных услуг. Вестник ИрГТУ №12 (107). 281-285 стр.

Тхаркахова И.Г. (2018) "Формирование затрат на транспортные услуги, факторы, влияющие на себестоимость перевозок" Ежеквартальный рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ, сер. «Экономика». Выпуск 3 (225).

Щербакова Н.В. (2013) "Особенности организации учета затрат на оказание автотранспорт-ных услуг" Экономика и право. Новый университет. № 11 (33).